



FAN:BINOLARNING SANTEXNIKA QURILMALARI VA JIXOZLARI

**Mavzu: Polietilen va viniplast
bilan qoplangan quvurlar**

REJA:

1. Polietilen quvurlar.
2. Viniplast bilan qoplangan quvurlar.
3. Bimetall quvurlar.

Bunday quvurlar maxsus po'latdan yasalgan quvurlar o'rnida ishlatilishi mumkin, shu bilan birga, ulardan foydalanish va montaj qilish oson. Chunki ular alohida bo'limlar holida bo'lib, montaj qilish uchun erkin yoki yechiladigan flaneslar bilan ta'minlangan. Armatura va qurilmalar quvurlarga flanes yordamida o'rnatiladi. Polietilen bilan qoplangan quvurlar bosimi 1,6 Mpa gacha va harorati $-40\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $70\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lganda ishlatilishi mumkin.

Politilen quvurlar.




Viniplast bilan qoplangan quvurlarni 1,6 Mpa bosimgacha va harorati $-10\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $80\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan hollarda qo'llash mumkin. Ajraladigan flaneslar quvurlar (diametri 10–150 mm gacha va uzunligi 8 metrgacha) bilan birgalikda montaj maydonchasiga keltiriladi. Emal bilan qoplangan quvurlar sanoat sharoitida ishlab chiqariladi va ular ko'pgina tajovuzkor moddalarga chidamli bo'ladi.

Viniplast bilan qoplangan quvurlar



Emal bilan qoplangan flaneslar quvurlarga flaneslar bilan payvandlangan holda chiqariladi, Quvurlarning bosimga chidamligining maksimal qiymati 0,6 MPa, qoplangan emalning qalinligi 0,4–1,5 mm bo‘lib, uzunligi 500, 1000, 1500, 2000, 2500 va 3000 mm, diametri 50, 70, 80 mm bo‘ladi. Shisha bilan qoplangan quvurlar ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqariladi. Bunday quvurlarda tajovuzkor, betaraf moddalarni, shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarini tashish mumkin




Slurry Flange™ Connection

Flange

O-Ring

Insert TFV

O-Ring



Ichi shisha bilan qoplangan quvurlar standart uzunlikda bo'lib, boshi va oxiriga flanes payvandlangan bo'ladi. Ulardan harorati $200\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha va bosim qiymati $0,6\text{ Mpa}$ gacha bo'lgan moddalarni o'tkazishda foydalanish mumkin.

ICHI SHISHA BILAN QOPLANGAN QUVURLAR



Shishadan yasalgan quvurlarga kabi, quvur ichiga qoplangan shisha qalinligi quvurning diametriga bog'liq bo'ladi, quvurning diametri 40 mm gacha bo'lganda, 1,5 mm, quvur diametri 50, 70, 100, 150 mm bo'lsa, 1,5 mm bo'ladi. Shisha bilan qoplangan quvurlarga rezba ochish, ularni qirqish va issiq holatda egish yoki burash mumkin.

- Bimetall quvurlar. Sanoat korxonalarida po‘lat quvurlar ichiga mis bilan qoplangan quvurlar chiqariladi. Quvur ichiga qoplangan misning qalinligi 0,4–1,5 mm bo‘ladi, quvurning bosimga chidamligi quvurning devor qalinligiga bog‘liq holda aniqlanadi, quvurlarning devor qalinligi, mis qatlamining qalinligini qo‘shgan holda, 2–5 mm.



Mis quvurlar o'rniga ishlatish mumkin. Ulanish qurilmalari (uchlik, to'rtlik, tirsak va boshqalar) cho'yandan yasalgan bo'lib, ichki qismi shisha bilan qoplangan bo'ladi. Quvurni egish uchun quvur qizil holatga kelguncha qizdiriladi ($700\text{--}750\text{ }^{\circ}\text{C}$) va quvur radiusi bo'yicha, radiusi $5D - 6D$ qiymatga teng bo'lgan holda egiladi. $700\text{--}750\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda shisha elastic holatda bo'ladi va shu sababli quvur bukilganida shishada chuzilish hosil bo'lmaydi.

RANGLI METAL QUVURLAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [.https://www.york.ca/environment/water-and-wastewater/inflow-and-infiltration](https://www.york.ca/environment/water-and-wastewater/inflow-and-infiltration)
2. [.https://www.researchgate.net/figure/Water-Supply-System-of-Highlake-city_fig1_301932765](https://www.researchgate.net/figure/Water-Supply-System-of-Highlake-city_fig1_301932765)
3. Google scholar
4. [.https://www.sylvanlake.ca/en/public-services/water-and-sewer.aspx](https://www.sylvanlake.ca/en/public-services/water-and-sewer.aspx)

**E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT!**